“MAKTABGACHA TA'LIM – MAKTAB – OLIY TA'LIM” KONSEPSIYASI: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

o‘rgatish, so‘zning semantik soyalarini tushunish , shuningdek , turli grammatik tuzilmalardan foydalanishga asoslangan tilni umumlashtirishni shakllantirishdir.

6 – 7 yoshli bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari . Bu yoshda bola rivojlanishining maktabgacha davri tugaydi , uning asosiy natijasi tizimli o‘rganishga tayyorlikdir. Bolaning ovozli talaffuzi to‘liq shakllangan bo‘lib , diksiyani, nutq oqimida tovushlardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini yaxshilash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi katta yoshdagi bolalarda quyidagi qarama-qarshi fonemalarning fonemik idroki va eshitish-talaffuz farqlari shakllanadi: S-Z, Sh-Z (ular ovoz paychalarining ishida farqlanadi) ; S_Sh, S-Sch, Z-Zh (shakllanish joyida. farqlanadi); T_Ts, S-Ts, Th-Ch, Shch-Ch, R-L (shakllanish usuli bilan farqlanadi). Bola so‘zdagi bir fonemaning o‘zgarishi (dar-dal, sorbor-xor) yoki ularning ketma-ketligi ma’noni o‘zgartirishi yoki so‘zni yo‘q qilishini allaqachon tushunadi.6-7 yoshli bolaning so‘z boyligi 3000-3500 so‘zgacha ko‘payadi , u majoziy so‘zlar va iboralarni, barqaror iboralarni faol ravishda to‘playdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning shakllanishi sekin -sekin, yoshga bog‘liq holda bo‘ladi. Nutq odob-axloqning bir ko‘rinishidir. Bolaning nutqini shakllantirib borish, uni atrof - muhitga qo‘shilishiga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika.-T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013.-290, 182-186b
2. Ziyonet.uz
3. Arxiv.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY ASARLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

N.X.Aslanova

BVXTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

Hozirgi paytda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo‘yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi.[1]

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Inson o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlarini tushunish uchun ona tilidan foydalanadi. Buyuk rus pedagogi A.A.Leontev asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish – bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo‘lib, ularni o‘zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi[2]. Nutqni egallash bolaga bevosita va bilvosita (ertak, hikoya, badiiy asar, tarbiyachining tushuntirishi…) yo‘l bilan borliq haqida bilimlar hosil qilishga imkon beradi. Maktabgacha ta’lim muassasasida lug‘at boyligini oshirish, so‘zning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish vazifalari hal etiladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush madaniyatini tarbiyalash ham alohida o‘rin tutadi. Nutqning tovush madaniyati o‘z mohiyatiga ko‘ra nutq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

1) bolalarning eshitishi, sur’at va ohangni idrok eta olish qobiliyatini ertak, hikoya, badiiy asar, tarbiyachining tushuntirishi asosida asta-sekin rivojlantirib borish;
2) qahramonlar obraziga taqlidiy harakatlar asosida artikulatsion apparatni rivojlantirish;
3) fikrni erkin bayon eta olish qobiliyatini shakllantirish;
4) rol ijrosi sharoitiga bog‘liq ravishda ovoz balandligi yoki pastligini boshqara olishni tarbiyalash;
5) dialoglar yordamida ona tilidagi barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish;
6) har bir tovush, shuningdek, so‘z va iboralarni aniq va ravon talaffuz qilish;
7) so‘zlarni adabiy til qoidalariga muvofiq talaffuz qilishga o‘rgatib borish;
8) syujetli rolli faoliyat asosida nutqning maromli sur’atini shakllantirish;
9) ijro jarayoni orqali nutqning ohangdor va ifodali bo‘lishiga erishish.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda muhimdir. Bolalarning talaffuziga, nutq madaniyatiga e’tibor qilish, me’yorda so‘zlab, muomala qilishga

[1] D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, B 7
[2] Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М., 1969. B 132

o‘rgatish turli hikoya, badiiy asar, ertaklar vositasida shakllantirilishi zarur. Chunki bolalikda tarkib topgan muomala madaniyati inson umrining oxirigacha yanada mukammallashib boradi. Nutqni muntazam o‘rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog‘i lozim.[1] Obrazli nutqni rivojlantirish keng ma’noda nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nutq madaniyati deganda, adabiy til normalariga rioya qilish, o‘z fikrlarini, hissiyotlarini, tasavvurlarini aytilayotgan gapning yo‘nalishi va maqsadiga muvofiq holda mazmunli, grammatik to‘g‘ri, aniq va ifodalab bera olish tushuniladi. Bolada ertak, hikoya, badiiy asar asosida nutq til boyligiga nisbatan qiziqish, turli xil ifoda vositalaridan foydalanish ko‘nikmasi rivojlantirilgan taqdirda obrazli, bevosita va jonli bo‘ladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar tengdoshlar bilan muloqot asosiy o‘rin egallaydigan rivojlanish sohalaridagi Syujetli rolli o‘yinlar, Til va nutq markazidagi faoliyat bilan bog‘liq. Bola katta yoshdagi odamdan ko‘ra o‘z tengdoshlari bilan muloqotni afzal ko‘radi. Birga o‘ynayotgan o‘rtog‘iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo‘lgan nutqdagiga nisbatan mazmunliroq tuyuladi. Juftlikdagi dialog asosan predmetli va nutqiy harakatlar tusiga ega bo‘ladi. Bola endi do‘stining e’tiborini o‘ziga jalb qilishni biladi, uning o‘zi o‘rtoqlarining ishlari va fikrlari bilan qiziqa boshlaydi.

Bola tilining grammatik tizimini o‘z vaqtida shakllantirish – uni to‘laqonli nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish morfologiya (so‘zlarni sonlar, kelishiklarga qarab o‘zgartirish), so‘z hosil qilish (maxsus vositalar yordamida bir so‘z negizida boshqa so‘zni hosil qilish), sintaksis (oddiy va qo‘shma gaplarni tuzish) ustidagi ishlarni o‘z ichiga oladi. Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o‘zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim.

Bolalarda grammatik tizimni – sintaksis, morfologiya, so‘z hosil qilishni shakllantirish o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun tarbiyachi turli vositalarni qo‘llashi darkor. Morfologiya va so‘z hosil qilishni o‘zlashtirish uchun rag‘batlantiruvchi til o‘yinlari: Qayerda?, Qachon?, Nima?, Qanday?; sintaksisni rivojlantirish uchun esa keng fikr bildirish, motivatsiyani yaratish: Qanday qilsak bo‘ladi?, Bittami yoki ko‘pmi?, Yordam ber., kabi o‘yinli-muloqot mashqlari orqali erishish muhim. Shuningdek, ertaklarni qayta hikoya qilishga yo‘naltirish, qahramonlarning hatti harakatlari, ularning dialogik va monologik nutqini bayon etish, sahna ko‘rinishlari, Syujetli rolli o‘yinlar markazidagi ertak qahramonlari atributlarini bir ertak syujeti orqali ketma-ketlikda joylashtirish va ularning ertakdagi o‘rni, xulq-atvori, hatti harakatlarini muhokama qilish usullari samarali natija beradi. Ma’lumki, bolalar o‘z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o‘z navbatida tarbiyachidan ham bosqichli rahbarlik xususiyatini talab qiladi.

Bola hayotining beshinchi yilida bolada gap va so‘z hosil qilish va so‘z ijodkorligi shakllantirilsa, oltinchi yilda – gap tarkibini eng oddiy holda tahlil qilish, nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirishga (so‘z o‘zgartirishda); yettinchi yilda – hosila so‘zlar (qo‘l+qop, asal+ari, sakkiz+oyoq) o‘rtasidagi munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka alohida e’tibor berishi lozim.

Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllanishidir. Buning uchun bolalarga gapda so‘zlarni biriktirishning turli usullarini, so‘zlar o‘rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog‘liqliklardan foydalanishni o‘rgatish zarur. Shundagina nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida muloqotchanlik ko‘nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash imkoniyati ta’minlanadi. «Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o‘zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur – obyektiv borliqning intihosi, til esa – ifoda usuli, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi. So‘z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi.[2]

Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy muhitida ro‘y berishi lozim. Tarbiyachi rahbarligidagi Til va nutq, Syujetli rolli o‘yinlar, Ilm-fan va tabiat, San’at, Qurish-yasash va matematika markazlaridagi ta’limiy amaliy ishlar, shuningdek, ertaklarni sahnalashtirishda foydalaniladigan qo‘g‘irchoq teatri (stol, soyali, barmoqli, qo‘lqopli, marionetkali turlari) ni qo‘llash asosida bolaning turli immitatsion harakatlari va faol fikrlash imkoniyatlari asosida aniq nutqiy faolligi ortib boradi. Bunday vaziyatlarda umumiy nutqiy jarayon bosqichma-bosqich, o‘yinli-ta’limiy va rivojlantiruvchi

[1] Тихеева Е.И..Развитие речи детей. – М.: Просвещение, 1976. В 18

[2] Бородич А.М. Методика развития речи детей: Учеб. пособ. для студ. пед. инс. 2-е изд. –М.: Просвещение, 1981. В 101

muhitning muhim sohasi sifatida tengdoshlar va atrofdagilar bilan muloqotning dialogik shakllarini o‘zlashtirish asosida rivojlanishini ta’minlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. T.: «Barkamol fayz media», 2018
2. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М., 1969.
3. Тихеева Е.И..Развитие речи детей. – М.: Просвещение, 1976.
4. Бородич А.М. Методика развития речи детей: Учеб. пособ. для студ. пед. инс. 2-е изд. –М.: Просвещение, 1981.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA FAOL RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISH

Boltayeva Nilufar Azamat qizi

Buxoro davlat universiteti Sirtqi bo’’lim talabasi

Annotatsiya*. Bolaning rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan markazlar faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki bugungi kunni samarali o’tishi, o’sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shar-sharoitlar yaratishni ko’zda tutadi. Maqolada faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning metodlari haqida bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar. *Maktabgahca ta’lim, rivojlantiruvchi muhit, talabalar, markazlar, tanqidiy fikrlash, тиатто*

Аннотация. *Деятельность центров детского развития не только готовит ребенка к самостоятельной жизни, но и создает необходимые условия для эффективного перехода сегодняшнего дня, естественного процесса роста и развития. В статье описаны методы создания активной среды разработки.*

Ключевые слова. *Школьное образование, развивающая среда, учащиеся, центры, критическое мышление, проблема.*

Annotation. *The activity of child development centers not only prepares the child for an independent life, but also creates the necessary conditions for the effective transition of today, the natural process of growth and development. The article describes methods for creating an active development environment.*

Keywords. *School education, developing environment, students, centers, critical thinking, problem.*

Buyuk olimlar Jan Piaje, Erikson, Lev Vigotskiy nazariyalari bo’yicha bolani o’rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga bo’lishni tavsiya etadi. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo’yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o’yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar faollik markazlari deb ataladi. Bugungi kunda rivojlantiruvchi markazlar deb yuritilmoqda.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish tamoyillari, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo’yiladigan talablar.

1. Eng avvalo markazlarda toza havo, toza joy, normal harorat va yorug‘ xonalarda tashkil etilishi lozim

2. Har bir markaz bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo’lishini ta‘minlash.

3. Markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag‘batlantirish, buning uchun zarur shar-sharoitlar yaratish. Masalan jihozlarning yetarli bo’lishi, kichik tadqiqot va tajribalar uchun ham

4. Markazlardagi barcha jihoz va qo’llanmalar bolaning bo’yi yetadigan balandlikda bo’lishi g‘amda bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo’lishi kerak.

5. Markazlardagi faoliyat davomida bolalar o’rtasida hamkorlik va muloqotni rag‘batlantirish (kichik guruhlar, juft bo’lib va o’yin o’ynashlariga sharoit yaratilgan bo’lishi kerak.)

6. Bolalarda muassasaga tegishlilik, markazlarda jihozlarni o’z joyida turishi, mavzular bo’yicha taqsimlanishi zarur.

7. Markazlar mazmunli qismlarga bo’linishi va uerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, o’yinchoqlar, tarqatmalar bo’lishi

8. Markazga tegishli mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to’siq bo’lmaydigan qilib joylashtirilgan bo’lishi, bola o’ziga tegishli jihozlarni bemalol harakatlantira olishi, nogironlarga mos mebel ham bo’lishi kerak.

9. Markazlardagi rivojlantiruvchi muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo’lishi kerak.

10. Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash muhim.

11. Bolaning o’z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish zarur.

Nurova Rohila Ismoil Qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI VA YO‘LLARI 55
Razoqova Hosilaoy Anvarovna. BOLALARGA ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH VA G‘AMXO‘RLIK KO‘RSATISHGA O‘RGATISH METODIKASI 56
Suvanova Nodirabegim Sadir qizi. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLARNING KOMPYUTER SAVODXONLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI 58
Ulug‘berdiyeva Dilbar Qarshibekovna. TASVIRIY FAOLIYAT MASHG‘ULOTLARIDA TAQDIMOTLAR ORQALI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 60
Umedjon To‘raqulovich Jumayev. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI 62
Abduraxmonova Aziza O‘tkirovna. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NAFOSAT TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI. 64
Рустамова Гулмира Ёрйигит қизи. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА МАТЕМАТИК ҚОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТРИЗ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ 66
Мансурова Сурайё Равшановна, С.Туракулова. К ВОПРОСУ УЧЕТА ГЕНДЕРНЫХ РАЗЛИЧИЙ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ 68
Расулова Лазиза Гайбуллаевна. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДОШКОЛЬНИКОВ. 71
Саидова Хулкар Хамидовна. ТАРБИЯЛАНУВЧИ ВА КОМПЬЮТЕР 74
Хамраева Нигора Абдуллаевна. ДОШКОЛЬНИКИ НОВОГО ВЕКА 76
Alimova Zulfiya Karimovna, Qalandarova Sevara Faxriddin qizi. MAKTABGACHA TA’LIM UZLUKSIZ TA’LIMNING BOSHLANG‘ICH BO‘G‘INI SIFATIDA 78
N.T.Tosheva, Raxmatova Gulnoza. MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYALANUVCHILARIDA ERKIN FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH 80
Azimova Musharraf O‘tkirovna, Axmedova E’zoza Baxtiyorovna. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA NUTQIDA KAMCHILIGI BOR BOLALAR BILAN ISHLASH 82
Sunnatova Gulruh Sherali qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 84
Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna. Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar 86
Husenova Nozima Axadovna. MTTDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR 88
Ro‘ziyeva Anora Rajabovna. TALIM TARBIYA JARAYONIDA MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI VA OTA-ONALAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIK, UNDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH 90
Xolova Dilovar Faxridinovna. MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNI NUTQIY NUQSONLARINI BARTARAF ETISHDA LOGOPEDIK MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH 92
Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna, Xalilova Firuza Mamatkulovna. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI KENG KO‘LAMLI ISLOHOTLAR-O‘ZBEKISTON KELAJAGINING ASOSI 94
Axmadova Nozima Murtazo qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNING RIVOJLANISHI 96
N.X.Aslanova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY ASARLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI 98
Boltayeva Nilufar Azamat qizi. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA FAOL RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISH 100
Karimova Dilbar Tashpulatovna. QURILISH MATERIALLARIDAN IJODIY QURISH-YASASH (ILK VA KICHIK YOSH) 101
Gulzoda Baxtiyorovna Ergasheva. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY ISTE’DODLARINI O‘YIN ORQALI RIVOJLANTIRISH. 104
Esanova Gulzoda Ortiqboyevna. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDA INDIVIDUAL YONDASHUV 107
Xolova Dilovar Faxridinovna. MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNI NUTQIY NUQSONLARINI BARTARAF ETISHDA LOGOPEDIK MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH 109
Dilbar Shonazarovna Eshova, Jalolova Sabina. SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI 110